




# QISHLOQ, O'RMON VA BALIQ XO'JALIGI


Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra 2018 yilning yanvar-iyun oylarida qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot(xizmat)larining umumiy hajmi 3577,0 mlrd.so'mni yoki 2017 yilning mos davriga nisbatan 100,5 foizni, shu jumladan dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar – 44,6 mlrd.so'mni (100,6 foiz), o'rmon xo'jaligida – 4,6 mlrd.so'mni (103,0 foiz), baliq xo'jaligida – 6,7 mlrd.so'mni (98,7 foiz) tashkil qildi.

## Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulotlari (xizmatlar)ning hajmi



Xususan yuqori o'sish sur'atlari Uchko'prik (110,3 foiz), Buvayda (105,6 foiz), Ozbekiston (105,5 foiz), Quva (105,4 foiz), Furqat (103,9 foiz) tumanlarida kuzatildi. So'x (74,0 foiz) tumanida, Farg'ona (96,0 foiz) va Marg'ilon (96,3 foiz) shaharlarida, Qo'shtepa (96,6 foiz), Oltiariq (96,8 foiz), Dang'ara (97,6 foiz), Farg'ona (98,6 foiz) tumanlarida esa aksincha past sur'atlar kuzatildi.

## Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmatlar)lar hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi




Viloyatning qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmida Oltiariq tumanining ulushi 10,6 foizni tashkil etdi va hududlar bo'yicha etakchilik qilmoqda, Quva va Uchko'prik tumanlari mos ravishda 8,1 foiz va 7,0 foiz ko'rsatkich bilan keyingi o'rinlarni egalladi. Eng kam ulush So'x (1,0 foiz) tumani, Qo'qon (1,2 foiz), Marg'ilon (2,0 foiz), Farg'ona (3,2 foiz) shaharida va Furqat (3,6 foiz) tumanlarida qayd etildi.

### Qishloq xo'jaligi mahsulotlari


2018 yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmining o'sishi 2017 yilning mos davriga nisbatan 100,5 foizni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari – 98,5 foizni, chorvachilik mahsulotlari – 106,5 foizni tashkil qildi.

## Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi



Xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlar umumiy hajmining 84,3 foizi – dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 14,2 foizi – fermer xo'jaliklariga, 1,5 foizi – qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

### Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi hududlar kesimida



Qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotining ulushi xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi hududlar kesimida tahlil qilinganda, eng yuqori ko'rsatkichlar barcha hududlarda dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.


## Dehqonchilik

2018 yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 2464,5 mlrd.so'mni yoki 2017 yilning mos davriga nisbatan 98,5 foizni tashkil etdi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 70,0 foizni tashkil qildi.



**Hosilni yig'ib olish.** 2018 yilning yanvar – iyun oylarida 172,8 ming tonna (111,9 foiz) kartoshka ishlab chiqarildi, 395,6 ming tonna (104,0 foiz) sabzavotlar, 6,4 ming tonna (99,8 foiz) oziqbop poliz, 132,7 ming tonna (78,0 foiz) meva va rezavorlar, 1,5 ming tonna (115,2 foiz) uzum yig'ib olindi. Bundan tashqari 396,9 ming tonnadan ortiq don ekinlari ishlab chiqarildi.

Dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda ho'jalik toifalarining ulushi



Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari dehqonchilik mahsulotlarining aksariyat turlarini asosiy ishlab chiqaruvchilari bo'lib qolmoqda, hisobot davrida kartoshka umumiy hajmining

99,1 foizi, sabzavotlarning 97,0 foizi, meva va rezavorlarning 66,2 foizi ular tomonidan ishlab chiqarildi. Don ekinlarining esa asosiy qismi fermer xo'jaliklari tomonidan ishlab chiqarildi, ishlab chiqarilgan ushbu mahsulot hajmining 83,9 foizi ular hissasiga to'g'ri keladi.

### Chorvachilik




2018 yilning yanvar-iyun oylarida chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 1056,5 mlrd.so'mni yoki 2017 yilning mos davriga nisbatan 106,5 foizni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy xajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 30,0 foizni tashkil etdi.

2018 yilning yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar

tomonidan tirik vaznda 75,9 ming tonna go'sht (2017 yilning yanvar-iyuniga nisbatan 5,7 foizga ko'p), 431,8 ming tonna sut (6,9 foizga), 266,6 mln.dona tuxum (10,7 foizga), 0,9 ming tonna jun (4,7 foizga) ishlab chiqarildi.

#### Asosiy turdagi chorvachilikmahsulotlarini ishlab chiqarishda ho'jalik toifalarining ulushi






Chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, tirik vaznda go'shtning umumiy hajmidan 91,8 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini qayd etish lozim, shuningdek sutning 95,7 foizi, tuxumning 74,5 foizi, junning 95,2 foizi ham dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri keladi.

### Yirik shoxli qoramollar va parrandalar bosh soni

2018 yilning 1 iyul holatiga yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni 997,1 ming boshga, shu jumladan sigirlar – 353,1 ming boshga, qo'y va echkilar – 830,9 ming boshga, parrandalar – 6488,4 ming boshga etdi.

2017 yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo'jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni – 12,0 ming boshga (1,2 foizga), shu jumladan sigirlar – 7,9 ming boshga (2,2 foizga), qo'y va echkilar – 3,4 ming boshga (0,4 foizga) kamaygan, parrandalar – 762,3 ming boshga (13,3 foizga) ko'paydi.


### Xo'jalik toifalarining chorva mollari va parrandalar bosh sonidagi ulushi




Fermer xo'jaliklari

Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari

Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2018 yining 1 iyul holatiga yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni ho'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 4,9 foizi fermer xo'jaliklari hissasiga, 93,9 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 1,2 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos ravishda qo'y va echkilarning umumiy sonidan 4,9 foizi fermer xo'jaliklariga, 94,6 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 0,5 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi, shuningdek parrandalar umumiy sonidan 9,1 foizi fermer xo'jaliklariga, 65,2 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 25,7 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi



Qishloq xo'jaligi va ekologiya  
statistikasi bo'limi

• 0 (373) 241-72-42

*mas'ul shaxs: Yakhyojon Esonmirzaev*